O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

KOLLOKATSIYALARNI KORPUS ASOSIDA ANIQLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE CORPUS-BASED IDENTIFICATION OF COLLOCATIONS

DOI:10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/HKVP3129

Umarova Shahzoda Iqboljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
tayanch doktoranti,
missshahzodaumarova@gmail.com

Annotation. *This thesis examines the theoretical and methodological foundations of identifying collocations through corpus-based analysis. Particular attention is paid to the ability of corpus data to reveal the combinability of linguistic units in authentic language use. The study discusses contextual and distributional properties of collocations, recurrence, typicality, lexical choice, and relative stability. A collocation is treated not merely as the co-occurrence of two or more words in the same text, but as a relatively regular and expected combination of particular lexical units.*

Keywords: *collocation, corpus linguistics, combinability, combinatorial properties, context, distribution, recurrence, typicality, lexical choice, collocational stability.*

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining ma’nosi va grammatik xususiyatlarini tavsiflash bilan bir qatorda ularning real nutqda qanday birikishi, qaysi birliklar bilan muntazam qo‘llanishi va qanday kontekstlarda faollashishini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir. An’anaviy lug‘aviy tavsif ma’lum bir so‘zning semantik va grammatik xususiyatlari haqida zarur ma’lumot bersa-da, so‘zning qaysi birliklar bilan odatiy tarzda birikishi hamda bunday birikishning real nutqdagi darajasini har doim ham to‘liq ko‘rsatib bera olmaydi. Korpus yondashuvi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Nesselhauf korpus ma’lumotlari kollokatsiyalarni real qo‘llanishi, muntazamligi va o‘ziga xos birikuvchanligi nuqtai nazaridan tekshirish imkonini berishini ko‘rsatadi [Nesselhauf, 2005: 322]. Mazkur masalaning dolzarbligi kollokatsiyalarning til tizimidagi o‘rnini faqat lug‘aviy birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki tilning amaliy ishlatilishida shakllanadigan kombinator munosabatlar tizimi sifatida tushunish zarurati bilan belgilanadi. So‘zlar grammatik jihatdan bir-biri bilan

birikishi mumkin bo‘lsa-da, nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan barcha birikmalar nutqda bir xil darajada tabiiy yoki tipik emas. Shuning uchun kollokatsiyani aniqlashda grammatik moslikdan tashqari leksik tanlov, kontekst, distributsiya va takroriy qo‘llanish kabi omillarni ham hisobga olish talab etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashda qo‘llanadigan nazariy va metodologik mezonlarni tizimlashtirish hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: kollokatsiyaning korpusdagi real qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash; kontekst va distributsiyaning kollokatsion munosabatni belgilashdagi rolini yoritish; takroriylik va tipiklikni kollokatsion barqarorlik bilan bog‘liq holda tahlil qilish; leksik tanlovning tillararo farqlanishini misollar asosida ko‘rsatish; chastotani kollokatsiyani baholashning yagona mezoni sifatida qabul qilishning cheklanganligini asoslash.

Kollokatsiyani korpus asosida o‘rganishning dastlabki tamoyili ikki yoki undan ortiq birlikning matnda yonma-yon kelishidan ko‘ra ularning birikish xarakterini aniqlashga qaratiladi. Korpusdagi birgalikdagi uchrashuvning o‘zi kollokatsion munosabatni avtomatik ravishda tasdiqlamaydi. Buning uchun birliklarning qanchalik muntazam qo‘llanishi, turli kontekstlarda takrorlanishi va ma’lum bir semantik vazifani bajarishi kuzatilishi lozim. Demak, korpus kollokatsiyani tayyor nazariy kategoriya sifatida qabul qilishdan ko‘ra, uning real nutqdagi namoyon bo‘lishini empirik tarzda tekshirish imkonini beruvchi metodologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Benson va Ilsonlarning The BBI Combinatory Dictionary of English asari so‘zlarning boshqa birliklar bilan birikishi va grammatik konstruksiyalar hosil qilishini tizimli tavsiflashga qaratilgan muhim manbalardan biridir [Benson, Benson, Ilson, 1986: 286]. Ushbu yondashuvda kollokatsiya oddiy sintaktik imkoniyatdan farq qiladi: u muayyan birlikning odatiy, leksik jihatdan belgilangan qo‘llanishini aks ettiradi. Korpus yondashuvi esa bunday tavsifning real matnlardagi faoliyatini kuzatish, uning muntazamligini baholash va turli kontekstlar bo‘yicha tekshirish imkonini beradi.

Masalan, ingliz tilidagi commit a crime birikmasida crime otining mazmuni va commit fe’lining “amalga oshirmoq, sodir etmoq” ma’nosi grammatik jihatdan tushunarli bo‘lsa-da, aynan commit fe’lining crime bilan tanlanishi kollokatsion xususiyatni yuzaga keltiradi. Rus tilida совершить преступление, o‘zbek tilida jinoyat sodir etmoq shakllari mazmunan yaqin bo‘lib, biroq ularning komponentlari va grammatik tashkil topishi bir xil emas. Shu sababli uch tilda bir

xil tushunchani ifodalovchi birliklarni qiyoslash kollokatsiyaning ham umumiy semantik, ham tilga xos kombinator tabiatini ko‘rsatadi.

Kollokatsiyaning kombinator xususiyatlarini aniqlashda birlikning faqat qaysi so‘z bilan birikishi emas, balki qanday kontekstda va qanday distributsion muhitda qo‘llanishi ham muhimdir. Birikmaning nutqdagi ma’nosi, grammatik shakli va funksional yuklamasi ko‘pincha uning atrofidagi birliklar bilan munosabati orqali aniqlanadi. Shuning uchun kollokatsion birlikni alohida, kontekstdan uzilgan holda emas, uning tabiiy qo‘llanish muhiti bilan birgalikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Hunston va Francisning Pattern Grammar yondashuvida leksik birlikning muntazam uchraydigan grammatik qoliplari uning ma’nosi va funksiyasini aniqlashda muhim dalil sifatida qaraladi [Hunston, Francis, 2000: 288]. Mazkur qarash kollokatsiyani korpus asosida tahlil qilish uchun muhim metodologik asos beradi: birlikning kombinator tabiatini uning real grammatik muhitidan ajratib bo‘lmaydi. Demak, kontekst qo‘shimcha ma’lumot emas, balki kollokatsiyaning ma’no va funksiyasini belgilashda faol omildir.

Ingliz tilidagi take measures birikmasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Take fe’lining umumiy “olmoq” ma’nosi ushbu birikmada saqlanmaydi; u muayyan harakatni amalga oshirish mazmunini ifodalaydi. Rus tilidagi принять меры va o‘zbek tilidagi choralar ko‘rmoq birliklari bilan qiyoslanganda umumiy semantik aloqa mavjudligi ko‘rinadi, biroq komponentlarning tanlanishi va sintaktik tashkil topishi tillar bo‘yicha farqlanadi. O‘zbek tilidagi ot + fe’l modeli va ko‘rmoq fe’lining ko‘chma funksiyasi o‘ziga xos kombinator modelni yuzaga keltiradi.

Distributsion tahlil kollokatsion birlikning boshqa birliklar bilan tarqalish va qo‘shilish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bir komponentning chap yoki o‘ng kontekstida ma’lum birliklarning muntazam ravishda paydo bo‘lishi uning kombinator chegaralarini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, pose a threat birikmasida pose fe’lining threat oti bilan qo‘llanishi odatiy birikuvchanlikni ifodalaydi. Rus tilida представлять угрозу, o‘zbek tilida xavf tug‘dirmoq shakllari mazmunan mos keladi. Biroq ingliz va rus tillarida fe’l + ot, o‘zbek tilida esa ot + fe’l modeli yuzaga keladi. Shunday qilib, umumiy semantik munosabat saqlangan holda kollokatsiyaning distributsion modeli tilga qarab o‘zgaradi.

Kontekstual tahlil kollokatsiyaning semantik cheklanishlarini ham ochib beradi. Bir xil fe’l turli otlar bilan grammatik jihatdan birikishi mumkin, ammo ularning barchasi bir xil darajada tabiiy kollokatsiya hosil qilmaydi. Ingliz tilidagi make progress birikmasi bunga misoldir. Do progress shakli ma’noni taxminan

anglash imkonini bersa-da, standart nutqda make progress darajasidagi odatiylikka ega emas. Rus tilida добиться прогресса, o‘zbek tilida taraqqiyotga erishmoq kabi birikmalar shu mazmunni boshqa kombinator vositalar orqali ifodalaydi.

Mazkur holat kollokatsion tanlovning oddiy grammatik moslikdan kengroq hodisa ekanini ko‘rsatadi. Grammatik jihatdan mumkin bo‘lgan birikma har doim ham tilning odatiy leksik tanlovini aks ettirmaydi. Shuning uchun korpus asosida kollokatsiyani aniqlashda “mumkin” va “tipik” birikmalar o‘rtasidagi farqni saqlash zarur. Bu farq ayniqsa ko‘p ma’noli va omonim birliklar bilan ishlashda muhimdir. Bir so‘z turli ma’nolarda turlicha kollokatsion muhitga kirishi mumkin. Shu sababli birlikning umumiy chastotasini qayd etishning o‘zi yetarli emas; uning qaysi ma’noda va qanday kombinatsiyalarda ishlatilayotganini ham aniqlash talab etiladi. Natijada kontekst kollokatsiyaning semantik chegaralarini, distributsiya esa uning kombinator imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalish birgalikda kollokatsiyaning real nutqdagi faoliyatini chuqurroq tushuntiradi.

Korpusdagi mavjudlik kollokatsiyaning avtomatik ravishda barqaror birikma ekanligini anglatmaydi. Matnda ikki yoki undan ortiq so‘zning birgalikda uchrashi ayrim hollarda faqat muayyan kontekstga xos tasodifiy yaqinlashuv natijasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun korpus tahlilining asosiy vazifalaridan biri tasodifiy birga kelish bilan til uchun odatiy va takroriy kollokatsion birikishni farqlashdan iboratdir. Bunda birlikning bir martalik yoki kam sonli uchrashi emas, balki turli matnlarda qayta-qayta namoyon bo‘lishi, komponentlarning bir-birini tanlash darajasi va birikmaning semantik yaxlitligi hisobga olinadi [Evert, 2008: 1212].

Kollokatsion barqarorlik deganda komponentlarning mutlaq o‘zgarmasligi emas, balki ma’lum birliklarning bir-biri bilan nisbatan muntazam va kutiladigan tarzda birikishi tushuniladi. Ingliz tilidagi heavy rain birikmasida heavy sifatining rain bilan muntazam qo‘llanishi tilning odatiy leksik tanlovini aks ettiradi. Rus tilidagi сильный дождь va o‘zbek tilidagi kuchli yomg‘ir birliklari mazmuniy jihatdan mos bo‘lsa-da, ularning formal tarkibi bir-biriga to‘liq mos kelishi kollokatsion barqarorlikni belgilamaydi. Muhim jihat shundaki, har bir til o‘zining leksik tizimiga ko‘ra muayyan komponentni tanlaydi.

Takroriy qo‘llanish kollokatsion ustuvorlikni aniqlashning asosiy manbalaridan biridir. Birikma turli mualliflar matnida, turli mavzularda va turli kommunikativ vaziyatlarda qayta uchrasa, uning kollokatsion maqomi kuchayadi.

Raise an issue, поднять вопрос, masalani ko‘tarmoq kabi birliklarda umumiy semantik munosabat mavjud bo‘lsa-da, ularning har biri tegishli tilning odatiy ifoda vositasi sifatida shakllangan. Korpusdagi turli kontekstlarni qiyoslash birikmaning faqat bitta matn yoki mavzu doirasida emas, balki kengroq nutq amaliyotida ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

Takroriy qo‘llanish muhim ko‘rsatkich bo‘lsa-da, chastota va tipiklikni aynan bir tushuncha sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Ayrim birikmalar muayyan matn mavzusi yoki janrining xususiyati sababli juda yuqori chastotaga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatda yuqori chastota birikmaning umumiy til uchun tipikligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Shuning uchun kollokatsiyani baholashda chastota natijasini kontekstual va distributsion kuzatishlar bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarur.

Xohlovaning 2024-yildagi tadqiqotida lug‘atlarda qayd etilgan ruscha fe’l + ot kollokatsiyalari Milliy korpusdagi chastota va statistik ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan. Tadqiqotda korpusda yuqori chastotali bo‘lgan birliklarning muhim qismi lug‘aviy manbalarda ham kollokatsiya sifatida qayd etilgani, shu bilan birga korpusdan aniqlangan tez-tez uchraydigan barcha birikmalar lug‘aviy kollokatsiyalar bilan to‘liq mos kelmagani ko‘rsatilgan [Хохлова, 2024: 78]. Mazkur kuzatuv kollokatsion barqarorlikni baholashda birgina chastotaga tayanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan korpus asosidagi metodologiyada chastota dastlabki saralash vositasi sifatida qaralishi, yakuniy baholash esa birikmaning kontekstlari, turli matnlardagi takroriyligi, semantik vazifasi va leksik tanlovi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv tasodifiy birga kelishlarni odatiy kollokatsiyalardan ajratish imkonini kuchaytiradi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillari materiallarini qiyoslash kollokatsiyalarning universal va tilga xos jihatlarini bir vaqtning o‘zida ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, raise an issue – поднять вопрос – masalani ko‘tarmoq birliklarida “muayyan masalani ilgari surish yoki muhokamaga olib chiqish” mazmuni umumiy bo‘lsa-da, leksik komponentlarning tanlanishi har bir tilda o‘ziga xosdir. Ingliz va rus tillarida fe’l + ot modeli, o‘zbek tilida esa ot + fe’l modeli kuzatiladi. Bu farq tarjimada mazmuniy ekvivalentlik saqlangan taqdirda ham kollokatsion komponentlarni so‘zma-so‘z ko‘chirish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Commit a crime – совершить преступление – jinoyat sodir etmoq misolida ham shunday holat kuzatiladi. Uchala birlik jinoyat sodir etish mazmunini ifodalasa-da, ingliz tilida commit fe’li, rus tilida совершить fe’li, o‘zbek tilida

esa sodir etmoq kombinatsiyasi tegishli tilning odatiy tanlovini tashkil qiladi. Bu holat kollokatsiyaning semantik ekvivalentlik bilan bir qatorda leksik tanlov va grammatik tashkil topish bilan ham belgilanadi.

Take measures – принять меры – choralar ko‘rmoq ham uch tilda umumiy mazmuniy aloqa va turli kombinator modellarni ko‘rsatadi. Pose a threat – представлять угрозу – xavf tug‘dirmoq misolida esa distributsion modelning tillar bo‘yicha o‘zgarishi yanada yaqqol ko‘rinadi. Demak, qiyosiy korpus tahlili kollokatsiyalarni tarjima ekvivalentlari sifatida emas, balki har bir tilning o‘zida shakllangan kombinator birliklar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlardan kelib chiqib, kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlash jarayonini bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlarda tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda tadqiqot uchun tayanch leksik birliklar va ularning ehtimoliy hamroh birliklari belgilanadi. Ikkinchi bosqichda korpusdan ushbu birliklarning real kontekstlari yig‘iladi. Uchinchi bosqichda birikmalarning grammatik modeli, chap va o‘ng kontekstdagi distributsiyasi hamda semantik vazifasi tahlil qilinadi.

Keyingi bosqichda takroriylik va tipiklik masalasi ko‘rib chiqiladi. Bunda birikmaning turli matnlarda va turli kommunikativ vaziyatlarda qayta uchrashi, uning muayyan leksik tanlovni muntazam ifodalashi hamda semantik jihatdan yaxlit modelga aylanishi e’tiborga olinadi. Chastota ma’lumotlari saralash va taqqoslash uchun xizmat qilishi mumkin, biroq yakuniy xulosani faqat chastota ko‘rsatkichiga asoslash metodologik jihatdan yetarli emas.

So‘nggi bosqichda aniqlangan birliklar qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi mumkin. Uch til materiali asosida olib borilgan bunday tahlil bir xil yoki yaqin semantik mazmunning turli tillarda qanday leksik, grammatik va distributsion vositalar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Shu tariqa korpus nafaqat kollokatsiyalar ro‘yxatini shakllantirish, balki ularning kombinator tabiatini izohlash uchun ham muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalari kollokatsiyani aniqlash bir vaqtning o‘zida bir nechta mezonni hisobga olishni talab qilishini ko‘rsatadi. Birikmaning korpusda mavjudligi dastlabki dalil bo‘lsa, uning takroriyligi kollokatsion odatiylikni kuchaytiradi; kontekst semantik va funksional xususiyatlarni ochadi; distributsiya kombinator chegaralarni ko‘rsatadi; leksik tanlov esa muayyan til uchun qaysi birlik ustuvor ekanini aniqlashga yordam beradi. Mazkur mezonlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi.

Kollokatsion tahlilda yana bir muhim jihat shundaki, til birliklarining formal ekvivalentligi ularning kollokatsion xususiyatlari aynan bir xil ekanini bildirmaydi. Uch tilda keltirilgan misollar semantik yaqinlik bilan birga turli grammatik modellar va leksik tanlovlarni namoyish etadi. Shu sababli kollokatsiyani o‘rganishda tarjima ekvivalentlarini mexanik ravishda tenglashtirishdan ko‘ra, har bir tilning o‘z korpusida birliklarning real qo‘llanishini alohida tekshirish muhimdir.

Bundan tashqari, kollokatsion barqarorlikni mutlaq o‘zgarmaslik bilan tenglashtirish ham to‘g‘ri emas. Tilning tabiiy rivojlanishi va kontekstga bog‘liq variativlik ayrim komponentlarning shakliy o‘zgarishiga imkon beradi. Biroq bunday o‘zgaruvchanlik muayyan birliklarning odatiy tanlanishiga asoslangan kombinator model mavjudligini inkor etmaydi. Shuning uchun kollokatsion barqarorlikni nisbiy muntazamlik va kutiluvchanlik sifatida tushunish metodologik jihatdan samaraliroqdir.

Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlash til birliklarining real nutqdagi birikuvchanligini empirik ravishda o‘rganish imkonini beradi. Korpus yondashuvi lug‘aviy va nazariy tavsiflarni real matn materiallari bilan tekshirish, kollokatsiyalarning muntazamligi va tipikligini aniqlash, shuningdek tasodifiy birga kelishlarni odatiy kombinator birliklardan farqlash uchun muhim metodologik asosdir.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, kollokatsiyani aniqlashda yagona mezon yetarli emas. Birikmaning korpusdagi chastotasi va takroriyligi muhim bo‘lsa-da, ular kontekst, distributsiya, semantik cheklanish va leksik tanlov bilan birgalikda baholanishi kerak. Ayniqsa yuqori chastotali birliklarning barchasi ham kollokatsiya sifatida talqin qilinmasligi mumkin. Shuning uchun kollokatsion barqarorlikni nisbiy muntazamlik, kutiluvchanlik va muayyan til uchun ustuvor leksik tanlov bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi misollar qiyosi umumiy semantik munosabat saqlangan holda kollokatsiyalarning leksik tanlovi, grammatik tashkil topishi va distributsion modeli farqlanishini ko‘rsatdi. Bu esa korpus asosidagi qiyosiy tadqiqotlar kollokatsiyalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashda samarali ekanini ko‘rsatadi. Natijada korpus kollokatsiyani aniqlashning yakuniy maqsadi emas, balki uning strukturaviy, semantik va kombinator xususiyatlarini obyektiv baholashga xizmat qiluvchi metodologik vosita sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Nesselhauf, N. (2005). Collocations in a Learner Corpus. Amsterdam: John Benjamins. 332 p.

2. Benson, M., Benson, E., & Ilson, R. (1986). The BBI Combinatory Dictionary of English: A Guide to Word Combinations. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins. 286 p.

3. Hunston, S., & Francis, G. (2000). Pattern Grammar: A Corpus-driven Approach to the Lexical Grammar of English. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins. 288 p.

4. Evert, S. (2008). Corpora and Collocations. In A. Lüdeling & M. Kytö (Eds.), Corpus Linguistics: An International Handbook (pp. 1212–1248). Berlin/New York: Mouton de Gruyter.

5. Хохлова, М. В. (2024). Высокочастотные глагольные словарные коллокации с существительными в Национальном корпусе русского языка. Труды Института русского языка им. В. В. Виноградова, № 4 (42), 78–88. DOI: 10.31912/pvrli-2024.4.5.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**